OILA VA MAKTAB HAMKORLIGIDA O‘QUVCHILARNING MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYASINI RIVOJLANTIRISH: TARIXIY VAZIYATLARNI TANQIDIY BAHOLASH YONDASHUVI

Saydaliyev Abbosxon Ibroximxon o‘g‘li
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti, Milliy tarbiyaning raqamli pedagogik ta’minoti ilmiy tadqiqot bo‘limi Katta ilmiy xodimi.

Annotatsiya. Mazkur tezisda oila va maktab hamkorligi sharoitida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirishda tarixiy vaziyatlarni tanqidiy baholash yondashuvining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida bolaning axloqiy qarashlari va ijtimoiy xulq-atvorini shakllantirish faqat maktab doirasidagi faoliyat bilan cheklanmasdan, oila bilan izchil va maqsadli pedagogik hamkorlikni talab etadi. Shu nuqtai nazardan tarixiy vaziyatlarni turli nuqtayi nazarlardan tahlil qilish, tarixiy shaxslar faoliyati va qarorlarining oqibatlarini baholash o‘quvchilarda axloqiy mulohaza yuritish, mas’uliyat, empatiya va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Tezisda ota-onalar va pedagoglarning mazkur jarayondagi hamkorlik mexanizmlari hamda tarixiy materiallardan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish imkoniyatlari asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: oila va maktab hamkorligi, ma’naviy-axloqiy tarbiya, tarixiy vaziyat, tanqidiy baholash, tarixiy tafakkur, axloqiy mulohaza, ota-onalar, pedagogik hamkorlik, empatiya, ijtimoiy mas’uliyat, fuqarolik tarbiyasi.

Аннотация. В тезисе анализируются педагогические возможности подхода, основанного на критической оценке исторических ситуаций, в развитии духовно-нравственного воспитания учащихся в условиях взаимодействия семьи и школы. В современном образовательном процессе формирование нравственных взглядов и социального поведения учащихся требует не только целенаправленной работы образовательного учреждения, но и последовательного педагогического взаимодействия с семьёй. В этом контексте анализ исторических ситуаций с различных точек зрения, оценка деятельности исторических личностей и последствий принимаемых ими решений позволяют развивать у

учащихся навыки нравственного рассуждения, ответственности, эмпатии и самостоятельного формирования выводов. В тезисе обосновываются механизмы взаимодействия родителей и педагогов, а также возможности использования исторического материала в целях духовно-нравственного воспитания.

Ключевые слова: взаимодействие семьи и школы, духовно-нравственное воспитание, историческая ситуация, критическая оценка, историческое мышление, нравственное рассуждение, родители, педагогическое взаимодействие, эмпатия, социальная ответственность, гражданское воспитание.

Abstract. This thesis analyzes the pedagogical potential of a critical evaluation of historical situations in developing students' spiritual and moral education through family–school collaboration. In contemporary education, the development of students' moral views and social behavior requires not only purposeful educational work within the school but also consistent pedagogical cooperation with the family. In this context, analyzing historical situations from different perspectives, evaluating the activities of historical figures and the consequences of their decisions can contribute to the development of students' moral reasoning, sense of responsibility, empathy, and ability to draw independent conclusions. The thesis substantiates mechanisms of cooperation between parents and teachers, as well as the potential of using historical materials for the purposes of spiritual and moral education.

Keywords: family–school collaboration, spiritual and moral education, historical situation, critical evaluation, historical thinking, moral reasoning, parents, pedagogical cooperation, empathy, social responsibility, civic education.

Kirish. Bugungi globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanayotgan sharoitda yosh avlodning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. O'quvchilarning axloqiy qarashlari, xulq-atvor me'yorlari va ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan munosabati faqat ta'lim muassasasida beriladigan tarbiyaviy ta'sir bilan emas, balki oiladagi muhit, ota-onalarning tarbiyaviy pozitsiyasi va maktab bilan o'rnatilgan hamkorlikning mazmuni bilan ham bevosita bog'liq. Shu sababli zamonaviy pedagogik yondashuvlarda oila va maktabni o'quvchining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi o'zaro bog'liq tarbiyaviy subyektlar sifatida qarash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Oila va maktab hamkorligining samaradorligi ularning tarbiyaviy maqsadlarining uyg'unligi, muntazam muloqoti va bolaning rivojlanishiga doir masalalarda birgalikda pedagogik yondashuv ishlab chiq-

ishiga bog‘liq. Xalqaro tadqiqotlarda ham bolaning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini ta’minlashda oila, maktab va kengroq ijtimoiy muhitning o‘zaro hamkorligi muhim omil sifatida ko‘rsatiladi. Demak, o‘quvchining ma’naviy-axloqiy rivojlanishini faqat maktabning vazifasi sifatida talqin qilish yetarli emas; bunda ota-onalarning pedagogik kompetensiyasi va ularning ta’lim-tarbiya jarayonidagi faol ishtiroki ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur muammoni hal etishda tarix ta’limining tarbiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish alohida e’tiborga loyiq. Tarixiy jarayonlar insoniyatning axloqiy tanlovlari, ijtimoiy mas’uliyati, murakkab qarorlari va ularning oqibatlarini o‘rganish uchun keng material beradi. O‘quvchi tarixiy vaziyatni tayyor baho asosida qabul qilish o‘rniga unda ishtirok etgan shaxslarning qarorlarini, mavjud shart-sharoitlarni, turli manfaatlar to‘qnashuvini va yuzaga kelgan oqibatlarni tahlil qilsa, tarixiy bilim tarbiyaviy mazmun kasb eta boshlaydi.

Tarixiy tafakkurni rivojlantirishga oid tadqiqotlarda tarixiy manbalarni tahlil qilish, ularning ishonchliligini baholash, turli dalillarni qiyoslash va tarixiy xulosalarni asoslash tarixiy fikrlashning muhim tarkibiy qismlari sifatida qaraladi. Shu jihatdan tarixiy vaziyatlarni tanqidiy baholash o‘quvchiga “nima sodir bo‘lgan?” degan savol bilan cheklanmasdan, “nima uchun bunday bo‘lgan?”, “boshqa qanday qaror qabul qilish mumkin edi?”, “qabul qilingan qarorning inson va jamiyat uchun qanday oqibatlari bo‘ldi?” kabi savollar ustida fikr yuritish imkonini beradi.

Bunday yondashuvning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, tarixiy vaziyatlar o‘quvchini axloqiy tanlov va mas’uliyat muammolari bilan yuzlashtiradi. Biroq tarixiy tafakkurni rivojlantirishning o‘zi avtomatik tarzda fuqarolik yoki axloqiy sifatlarning shakllanishini kafolatlamaydi. Tadqiqotlarda tarixiy fikrlashga yo‘naltirilgan pedagogik aralashuv tarixiy izlanish ko‘nikmalarini rivojlantirishi mumkinligi ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, uning fuqarolik natijalari maqsadli pedagogik tashkil etishni talab qilishi qayd etiladi. Bu holat tarixiy vaziyatlarni tanqidiy baholashni bevosita ma’naviy-axloqiy tarbiya maqsadlari bilan bog‘lash zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu nuqtai nazardan, oila va maktab hamkorligi tarixiy vaziyatlarni tanqidiy baholash asosida tashkil etiladigan tarbiyaviy jarayonning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralishi mumkin. Maktabda muayyan tarixiy vaziyat yuzasidan shakllantirilgan axloqiy mulohaza va xulosalar oiladagi suhbat, munozara va kundalik hayotiy vaziyatlar bilan bog‘langanda tarbiyaviy ta’sirning uzluksizligi ta’minlanadi. Ota-onalar esa o‘quvchining tarixiy vaziyatga bergan bahosini tayyor hukm bilan

almashtirish o‘rniga savol berish, dalil izlash, turli nuqtayi nazarlarni qiyoslash va xulosani mustaqil shakllantirishga yo‘naltiruvchi hamkor sifatida ishtirok etishi mumkin.

Shunday qilib, tarixiy vaziyatlarni tanqidiy baholash yondashuvi oila va maktab hamkorligini mazmunan boyitib, tarixiy bilimlarni ma’naviy-axloqiy tarbiya vositasiga aylantirish imkonini beradi. Mazkur yondashuvning pedagogik salohiyati aynan o‘quvchining tarixiy voqelikni tahlil qilishi, axloqiy tanlovlarni anglash va baholashi hamda o‘z xulosalarini real hayotiy munosabatlar bilan bog‘lay olishi orqali namoyon bo‘ladi.

Oila va maktab hamkorligining ma’naviy-axloqiy tarbiyadagi pedagogik salohiyati.

O‘quvchining ma’naviy-axloqiy rivojlanishi birgina ta’lim muassasasida amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlar bilan cheklanmaydi. Shaxsning axloqiy qarashlari, ijtimoiy munosabatlarga munosabati va xulq-atvor me’yorlari turli ijtimoiy muhitlarning o‘zaro ta’siri jarayonida shakllanadi. Shu sababli oila va maktab hamkorligini tarbiya jarayonining tashkiliy shakli sifatida emas, balki o‘quvchining shaxsiy rivojlanishini ta’minlovchi yaxlit pedagogik tizim sifatida qarash maqsadga muvofiq.

OECD tomonidan o‘tkazilgan xalqaro tadqiqotlarda ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirishda oila, maktab va hamjamiyatning muhim o‘rni qayd etilib, bolaning turli muhitlarda olayotgan tarbiyaviy ta’sirlari o‘zaro uyg‘un bo‘lishi zarurligi ta’kidlangan. Bu xulosa ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonida ham muhim metodologik ahamiyatga ega. Chunki maktabda shakllantirilayotgan axloqiy me’yorlar oiladagi munosabatlar bilan mustahkamlanmasa, tarbiyaviy ta’sirning uzluksizligi va barqarorligi susayishi mumkin.

Oila va maktab hamkorligining mazmunini faqat ota-onalar yig‘ilishlari yoki umumiy tarbiyaviy tadbirlar bilan chegaralash ushbu hamkorlikning pedagogik imkoniyatlarini toraytiradi. Aksincha, ota-onalarni bolaning fikrlash, baholash va qaror qabul qilish jarayonlariga pedagogik jihatdan to‘g‘ri yo‘naltirilgan hamkor sifatida jalb etish tarbiya samaradorligini oshirishi mumkin. Bunda ota-onaning vazifasi o‘quvchiga tayyor axloqiy xulosani berish emas, balki uni mustaqil mulohaza yuritishga, o‘z fikrini asoslashga va boshqa insonlarning qarashlarini tushunishga yo‘naltirishdan iborat bo‘ladi.

Mazkur yondashuv tarixiy materiallar bilan ishlashda ayniqsa samarali bo‘lishi mumkin. Chunki tarixiy voqealar o‘quvchiga real hayotdan uzoq bo‘lgan mavhum axloqiy qoidalarni emas, balki insonlar tomonidan qabul qilingan qarorlar va ularning oqibatlarini tahlil qilish

imkonini beradi. Oila va maktab mazkur materialdan bir xil pedagogik maqsadda foydalansa, tarixiy bilim tarbiyaviy mazmun bilan boyiydi.

Shunday qilib, oila va maktab hamkorligining mazmuniy jihatdan takomillashtirilishi o‘quvchining ma’naviy-axloqiy rivojlanishini uzluksiz jarayonga aylantirishi mumkin. Bunda tarixiy vaziyatlarni tanqidiy baholash maktabdagi ta’lim faoliyati bilan oiladagi tarbiyaviy suhbatni bog‘lovchi pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Tarixiy vaziyatlarni tanqidiy baholashning tarbiyaviy mexanizmi. Tarixiy vaziyatlarni tanqidiy baholashni oddiy tarixiy voqeani “yaxshi” yoki “yomon” deb baholash bilan tenglashtirib bo‘lmaydi. Ilmiy jihatdan bu jarayon tarixiy vaziyatning shart-sharoitlarini aniqlash, undagi manfaatlar va qarashlarni tahlil qilish, tarixiy manbalarni qiyoslash, turli qarorlarning ehtimoliy va real oqibatlarini baholash hamda dalillarga asoslangan xulosaga kelishni nazarda tutadi.

Van Drie va van Boxtel tomonidan ishlab chiqilgan tarixiy fikrlash modeli tarixiy savollarni qo‘yish, manbalardan foydalanish, tarixiy kontekstni aniqlash, argumentatsiya qilish hamda tarixiy va metatarixiy tushunchalardan foydalanish kabi komponentlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu komponentlar tarixiy vaziyatlarni tanqidiy baholash uchun metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Masalan, o‘quvchilarga muayyan tarixiy shaxs yoki ijtimoiy guruh oldida turgan murakkab vaziyat taqdim etilganda, ulardan faqat “U to‘g‘ri ish qildimi?” deb so‘rash yetarli emas. Buning o‘rniga quyidagi savollar tizimidan foydalanish mumkin:

mazkur qarorni qabul qilishga qanday tarixiy sharoitlar ta’sir ko‘rsatgan?

qaror qabul qiluvchi shaxs qanday imkoniyatlarga ega edi?

u qarorning qanday oqibatlarini oldindan ko‘rishi mumkin edi?

qarorning turli ijtimoiy guruhlar uchun ta’siri qanday bo‘lgan?

boshqa qaror qabul qilinganida qanday natija yuzaga kelishi mumkin edi?

bugungi kun nuqtayi nazaridan ushbu vaziyatdan qanday axloqiy xulosa chiqarish mumkin?

Bunday savollar o‘quvchini tayyor bahoni takrorlashdan voz kechib, tarixiy vaziyatni ko‘p qirrali tahlil qilishga undaydi. Eng muhimi, tarixiy shaxs yoki voqea ustidan hukm chiqarishdan oldin o‘quvchi dalillarni o‘rganadi, vaziyatni kontekstual jihatdan tushunishga harakat qiladi va o‘z xulosasini asoslaydi.

Mazkur jarayon ma’naviy-axloqiy tarbiya nuqtayi nazaridan ham muhimdir. Chunki o‘quvchi tarixiy vaziyatni baholash orqali adolat,

mas’uliyat, vatanparvarlik, insonparvarlik, bag‘rikenglik va boshqa axloqiy qadriyatlarning real hayotdagi namoyon bo‘lish shakllarini anglaydi.

Oila ishtirokida tarixiy vaziyatlarni muhokama qilishning imkoniyatlari. Tarixiy vaziyatlarni tanqidiy baholashning tarbiyaviy samaradorligini oshirishda oila bilan hamkorlikning alohida imkoniyatlari mavjud. Maktabda muhokama qilingan tarixiy vaziyat oila muhitida davom ettirilsa, o‘quvchi o‘z fikrlarini turli avlod vakillari bilan muhokama qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bunda ota-onaning hayotiy tajribasi tarixiy materialni bevosita hayotiy qadriyatlar bilan bog‘lash uchun qo‘shimcha pedagogik resurs vazifasini bajarishi mumkin.

Masalan, o‘qituvchi darsda tarixiy vaziyatni tahlil qilishga yo‘naltirilgan topshiriq berishi va o‘quvchidan ushbu masala yuzasidan oilada suhbat o‘tkazishni so‘rashi mumkin. Ota-ona bilan suhbat davomida o‘quvchi turli nuqtayi nazarlarni eshitadi, o‘z qarashlarini izohlaydi va qarama-qarshi fikrlar mavjud bo‘lgan vaziyatlarda muloqot qilishni o‘rganadi.

Biroq bu jarayonda ota-onaning pedagogik pozitsiyasi muhim. Ota-ona farzandining fikrini darhol ma’qullash yoki rad etish o‘rniga “Nima uchun shunday deb o‘ylaysan?”, “Buni qaysi dalil asosida aytyapsan?”, “Boshqa tomonning nuqtayi nazari qanday bo‘lishi mumkin?” kabi savollar orqali uning fikrlash jarayonini qo‘llab-quvvatlashi maqsadga muvofiq.

Shunday tashkil etilgan oilaviy muloqot o‘quvchida nafaqat tarixiy bilimlarni mustahkamlash, balki empatiya, tinglash, fikrni asoslash va boshqalarning nuqtayi nazarini hurmat qilish kabi ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. OECD tadqiqotlarida ham bunday ko‘nikmalarning rivojlanishi uchun oila va maktabdagi tarbiyaviy muhitlarning o‘zaro uyg‘unligi muhimligi ko‘rsatilgan.

Tarixiy tanqidiy baholashdan ma’naviy-axloqiy xulosaga: pedagogik zanjir. Mazkur yondashuvning muhim jihati tarixiy faktni o‘rganish bilan tarbiyaviy xulosani bir-biridan ajratmaslikdir. Bunda pedagogik jarayonni quyidagi ketma-ketlikda tashkil etish mumkin: tarixiy vaziyat → manbalarni tahlil qilish → turli nuqtayi nazarlarni qiyoslash → qaror va uning oqibatlarini baholash → axloqiy muammoni aniqlash → shaxsiy pozitsiyani asoslash → hayotiy vaziyat bilan bog‘lash.

Ushbu zanjirning dastlabki bosqichlari tarixiy tafakkurni, keyingi bosqichlari esa ma’naviy-axloqiy mulohaza va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan tarixiy vaziyatni tanqidiy baholashni faqat bilish faoliyati emas, balki tarbiyaviy jarayon sifatida ham tashkil etish mumkin.

Biroq bu yerda muhim metodik cheklovni hisobga olish zarur. 2022-yilda o‘tkazilgan klaster-randomizatsiyalangan tadqiqot tarixiy izlanish kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan darslar o‘quvchilarning tarixiy izlanish ko‘nikmalarini yaxshilaganini ko‘rsatgan, biroq tarixiy tafakkurning demokratik ko‘nikma va dispozitsiyalarga avtomatik tarzda ko‘chishi bo‘yicha aniq dalil aniqlanmagan. Tadqiqotchilar tarixiy tafakkur va fuqarolik ko‘nikmalari o‘rtasidagi ehtimoliy bog‘liqlik mavjud bo‘lsa-da, bunday transferni ta’minlash uchun maxsus pedagogik strategiyalar zarurligiga e’tibor qaratadilar.

Bu xulosa bizning yondashuvimiz uchun prinsipial ahamiyatga ega. Demak, tarixiy vaziyatni tahlil qilishning o‘zi yetarli emas. O‘qituvchi tarixiy tahlilni ma’naviy-axloqiy mulohaza, oilaviy muloqot va real hayotiy vaziyat bilan ongli ravishda bog‘lashi kerak. Ana shundagina tarixiy bilimdan tarbiyaviy natijaga o‘tish uchun zarur pedagogik sharoit yuzaga keladi.

Ota-onalar maktabi orqali hamkorlikni metodik qo‘llab-quvvatlash. “Namunali ota-onalar maktabi” konsepsiyasi doirasida ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirishni faqat bola tarbiyasining umumiy masalalari bilan cheklamasdan, tarixiy va ijtimoiy mazmundagi vaziyatlarni muhokama qilish metodikasini ham qamrab olish maqsadga muvofiq. Bunda ota-onalarga farzand bilan tarbiyaviy suhbatni qanday tashkil etish, savol berish, uning mustaqil fikrini qo‘llab-quvvatlash va bahsli masalalarda tayyor hukm bermaslik kabi amaliy tavsiyalar berilishi mumkin.

Ota-onalar maktabidagi mashg‘ulotlarni “tarixiy vaziyat – oilaviy muhokama – axloqiy xulosa” tamoyili asosida tashkil etish mumkin. Masalan, ota-onalarga muayyan tarixiy vaziyat taqdim etilib, avvalo uning mazmuni va tarixiy konteksti tushuntiriladi. Keyin ota-ona va farzandning mazkur vaziyatni qanday muhokama qilishi mumkinligi namoyish etiladi. Yakunda esa tarixiy vaziyatdan kundalik hayot uchun qanday axloqiy saboq chiqarish mumkinligi muhokama qilinadi.

Bunday yondashuv ota-onani tarbiyaviy jarayonning passiv kuzatuvchisidan faol pedagogik hamkorga aylantiradi. Maktab esa ota-onaga faqat “farzandingiz bilan ko‘proq shug‘ullaning” degan umumiy tavsiya berish o‘rniga, qanday shug‘ullanish kerakligi bo‘yicha aniq metodik vositalarni taqdim etadi.

Shu tariqa “Namunali ota-onalar maktabi” oila va maktab o‘rtasidagi aloqani mustahkamlovchi tashkiliy tuzilma bo‘lish bilan birga, o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish maydoniga aylanishi mumkin.

Xulosa. O‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini samarali tashkil etish bugungi ta’lim jarayonida oila va maktabning alohida-alohida emas, balki o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatini talab etadi. Ushbu hamkorlik mazmunan boyitilib, ota-onalar pedagogik jarayonning faol ishtirokchisiga aylantirilgandagina tarbiyaviy ta’sirning uzluksizligi va izchilligini ta’minlash imkoniyati kengayadi.

Tarixiy vaziyatlarni tanqidiy baholash mazkur hamkorlik uchun samarali pedagogik vosita bo‘la oladi. Tarixiy voqealar va shaxslar faoliyatini turli nuqtayi nazarlardan tahlil qilish, qarorlarning sabab va oqibatlarini aniqlash, manbalarni qiyoslash hamda tarixiy vaziyatdagi axloqiy muammolarni anglash o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va axloqiy mulohaza yuritish qobiliyatini rivojlantiradi. Biroq tarixiy tafakkurning o‘zi avtomatik ravishda axloqiy yoki fuqarolik sifatlarning shakllanishiga olib kelmasligi sababli, mazkur jarayonni maqsadli tarbiyaviy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish zarur.

Shu nuqtayi nazardan, maktabda tashkil etilgan tarixiy vaziyatlar tahlilini oiladagi muloqot va muhokamalar bilan davom ettirish muhim pedagogik imkoniyat yaratadi. Ota-onaning farzandga tayyor xulosa beruvchi emas, balki savol qo‘yuvchi, fikrlashga undovchi va turli nuqtayi nazarlarni qiyoslashga yordam beruvchi hamkor sifatidagi pozitsiyasi o‘quvchining empatiya, mas’uliyat, bag‘rikenglik va mustaqil qaror qabul qilish kabi sifatlarini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Shu asosda “Namunali ota-onalar maktabi” faoliyatini tarixiy vaziyatlarni tanqidiy baholash asosida tashkil etiladigan oilaviy tarbiyaviy muloqot bilan uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq. Bunda ota-onalarga tarixiy materiallardan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish, farzand bilan muammoli vaziyatlarni muhokama qilish, uning fikrini asoslashiga imkon berish va tarixiy xulosalarni kundalik hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash bo‘yicha metodik tavsiyalar berilishi mumkin.

Umuman olganda, oila–maktab hamkorligi + tarixiy vaziyatlarni tanqidiy baholash + ma’naviy-axloqiy muloqot birligiga asoslangan yondashuv o‘quvchini tarixiy bilimlarni o‘zlashtiruvchi subyektdan tarixiy tajribadan xulosa chiqaruvchi, axloqiy tanlovlarni anglaydigan va ijtimoiy mas’uliyat bilan fikrlaydigan shaxsga aylantirish uchun pedagogik sharoit yaratadi. Mazkur yondashuv O‘zbekistonda ta’lim va tarbiya sifatini oshirish, oila va ta’lim muassasasi hamkorligini mustahkamlashga qaratilgan vazifalarning mazmuniy jihatdan boyishiga xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ikesako H., Miyamoto K. Fostering Social and Emotional Skills Through Families, Schools and Communities: Summary of International Evidence and Implication for Japan’s Educational Practices and Research. – Paris: OECD Publishing, 2015. – 75 p.

2. OECD. School Partnerships Addressing Child Well-being and Digital Technology. – Paris: OECD Publishing, 2025. – 33 p.

3. Van Nieuwenhuyse K., et al. Fostering Historical Thinking and Democratic Citizenship? A Cluster Randomized Controlled Intervention Study // Contemporary Educational Psychology. – 2022. – Vol. 71. – Article 102115.

4. Van Drie J., Van Boxtel C. Historical Reasoning: Towards a Framework for Analyzing Students’ Reasoning about the Past // Educational Psychology Review. – 2008. – Vol. 20, No. 2. – P. 87–110.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr. – Toshkent, 2020. – 75 b.